



**Bitiruvchilar 5 ta chet el universitetiga suhbat asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin**

2-betda o'qing



**Naymanliklar uchun ma'rifiy sovg'a**

3-betda o'qing

# INSON va qonun

2024-YIL  
20-FEBRAL  
SESHANBA

№ 07  
(1419)

www.hudud24.uz

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)

@adolat\_nashrlari



"ADOLAT"

"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



XABAR

"Ziyo\_ulash" aksiyasi Tomdi tumanida ham aks-sado berdi. Navoiy viloyat markazidan qariyb 300 kilometr uzoqlikda joylashgan mazkur hududning olis qishloqlaridan biri "Ajiriqti" aholisi uchun "Aktov" ovulida adliya organlari tomonidan kutubxona tashkil qilinishi qizilqumliklar uchun chin ma'noda ma'rifiy tuhfa bo'ldi.



**TOMDIDA**  
*adliya kutubxonasi*

6-betda o'qing



**Maktabdan ogohlantirish xati keldi**

4-betda o'qing



**Bosqinchi "GAI"lar**

...Quyidagi jinoyat fabulasi yovuz niyatli odamlar yonimizda yashayotganini negadir sezmayotganimiz, ularni ko'rib-ko'rmaslikka olayotganimiz, e'tiborsizligimizning og'ir asoratidan dalolatdir...

5-betda o'qing

**"HECH BIR SHAXS HUJJATSIZ QOLMAYDI"**



6-betda o'qing

Ta'kidlash lozimki, huquqiy aksiya doirasida har bir hududda mahallalar kesimida tug'ilishi qayd etilmagan, fuqarolik pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi mavjud bo'lmagan shaxslarning ro'yxatini shakllantirish, ularga qonuniy tartibda tug'ilganlik haqidagi guvohnoma va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish, huquqiy muammosi mavjud yoxud huquqiy yordamga muhtoj aholi ro'yxati shakllantirgan holda muammolarni o'rganish hamda fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, tadbirkorlik subyektlari yoinki ko'chmas mulklarni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish, elektron raqamli imzo kalitini berish, bolani davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga joylashtirish yuzasidan navbatga qo'yish va boshqa xizmatlarni ko'rsatish rejalashtirilgan.



**Maqsad va ma'noga yo'g'rilgan umr yo'llari**

8-betda o'qing



## 2 JARAYON

**Davlatimiz rahbarining 2020-yil Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida mamlakatimizda 2020-2021-o'quv yilidan boshlab kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida Milliy malaka tizimini ishlab chiqish, yurtimizda 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi.**



## BITIRUVCHILAR 5 TA CHET EL UNIVERSITETIGA suhbat asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin

O'zbekistonda yangi professional ta'limda birinchi marta har bir mutaxassisning xalqaro me'yorlarga mos malaka darajasini belgilab berishga asos bo'ladigan hujjat – Milliy malaka tizimi qabul qilindi. Iqtisodiyotning har bir sohasi bo'yicha tarmoq malaka tizimlari belgilandi. Shu jumladan, Adliya vazirligi tuzilmasida har bir hududda bittadan – 14 ta yuridik texnikum tashkil etildi.

Yuridik texnikumlarining o'quv-metodik jarayonini muvofiqlashtirish, ularga amaliy va axborot-resurs jihatidan ko'maklashish Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan, ularning faoliyatiga rahbarlik qilish va nazoratni tashkil etish hamda tashkiliy-kadrlar bazasini mustahkamlash esa hududiy adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi yuridik texnikumlarda davlat huquqiy faoliyat; yuridik xizmat; sud-huquqiy faoliyat mutaxassisliklari bo'yicha o'quvchilarni o'qishga qabul qilish yo'liga qo'yilgan.

Kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS) asosida "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari

tasdiqlangan bo'lib, har o'quv yili boshlanishidan oldin Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan o'quv rejalari va fan dasturlari ishlab chiqilib, texnikumlarga yetkaziladi. Yuridik texnikum pedagoglari bilan Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilari hamkorligida texnikum o'quvchilari uchun yangi 22 nomdagi darsliklar tayyorlandi. Shuningdek, o'quvchilar uchun "Elektron darsliklar" tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, yuridik texnikumlar kutubxona fondini boyitish maqsadida 24 ming 45 ta yangi avlod darsliklari, 69 nomdagi 14 ming 900 ta badiiy va boshqa zarur adabiyotlar bilan ta'minlangan.

2023/2024-o'quv yilidan pedagoglarning o'quvchilar bilan muloqoti hamda o'quvchilarning o'zaro muloqotini o'z ichiga oluvchi "Elektron yuridik texnikum" innovatsion elektron platformasi joriy etildi. Unda har bir fan bo'yicha ta'lim kontentlari (ma'ruza matnlari, videodarslar, taqdimotlar, kazuslar, testlar va foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar) joylashtirildi. Yuridik texnikumlarining pedagog va o'quvchilari ushbu tizimdan foydalanishlari uchun tegishli sharoitlar yaratildi (alohida login va parol orqali).

Yuridik texnikumlarining iqtidorli o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli tanlovlar va stipendiyalar joriy etilgan. Shu jumladan, birgina 2023-yilda 212 nafar o'quvchi Adliya vazirligi stipendiyasi sohibi bo'ldi.

Texnikumlar o'quvchilari o'rtasida "Idrok" intellektual o'yinlari, "Eng iqtidorli o'quvchi", "Huquqiy fanlar olimpiadasi", "Jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlari bo'yicha namunaviy sud protsessi" tanlovlarining o'tkazilishi o'quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan birga, ularning tafakkurini boyitishga xizmat qilmoqda. Yuridik texnikumlarda respublika hamda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etilishi esa o'quv dargohlarining xalqaro nufuzini oshirmoqda.

Yuridik texnikumlarda yoshlarning ta'lim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt hamda TDYU qoshidagi akademik litseyini tamomlagan o'zlashtirish ko'rsatkichlarining 56 foiz va undan yuqori natijalariga ega bitiruvchilar va respublika oliy ta'lim muassasalarida "yurisprudensiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha test sinovlarida ishtirok etib, unda to'plash mumkin bo'lgan umumiy ballning 60 yoki undan yuqori foizini to'plab, o'qishga tavsiya etilmagan yoki chet tilini bilish darajasini tasdiqlovchi B2 va undan yuqori darajadagi davlat malaka sertifikatiga yoki xalqaro sertifikatga ega abituriyentlar yuridik texnikumlarga kirish imtihonlarisiz, to'lov-kontrakt asosida qabul parametrlaridan tashqari qabul qilinishi joriy etilgan.

Bugungi kunda yuridik texnikum bitiruvchilari 5 ta xorijiy davlatdagi yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha universitetlarga suhbat asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 17-sonli hamda 705-sonli qarorlari asosida yuridik texnikum bitiruvchilari suhbat asosida respublikamizdagi turli nufuzli universitetga kirish imkoniyati yaratilgan.

Yuridik texnikumlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida pullik asosda tayyorlov va boshqa kurslarni, yozgi va qishki maktablarni, shu jumladan, chet el fuqarolari uchun tashkil etishning aniq tartibi ishlab chiqilib tasdiqlangan.


Milliy malaka tizimining qabul qilinishi, professional ta'lim standartlarining joriy etilishi yoshlarimizning professional o'sish yo'nalishlarini belgilab olishlariga imkon yaratadi.

**Dilorom RAHIMOVA,**

Toshkent davlat yuridik universiteti uzluksiz ta'lim boshqarmasi xodimi

**Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagoglarning huquqiy maqomi, malakasi va ularga munosib haq to'lash masalasi juda muhimdir. Munosib haq to'lash uchun esa o'qituvchining malakasi ham talab darajasida bo'lishi shart.**

## KASBIY SERTIFIKATGA EGA BO'LISH TALAB ETILADI



Prezidentimizning 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ayni tilga olingan masalalar o'z aksini topgan. Unga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kasblariga birinchi marta ishga qabul qilinayotgan talabgorlarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etilishi belgilandi. Bundan tashqari, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma'lumotli talabgorlar stajor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadi. Eng muhimi, undan bir yil davomida kasbiy sertifikatga ega bo'lishi talab etiladi. Shundan kelib chiqib aytganda, oliygoh bitiruvchisi yoki birinchi marta ishga qabul qilingan xodimga kasbiy sertifikat olguniga qadar oliy ma'lumotli (toifasiz) o'qituvchining bazaviy tarif stavkasi qo'llaniladi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi "Davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga binoan endilikda pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatiladi. Kasbiy sertifikat bu – nazorat sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan jismoniy shaxsga pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beradigan, cheklanmagan muddatga beriladigan QR-kod qo'yilgan davlat namunasidagi hujjatdir. Talabgor kasbiy sertifikatlash jarayoniga o'z muddatida jalb etilishi uchun u faoliyat ko'rsatayotgan davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotining rahbari mas'ul hisoblanadi. Avvalo, talabgor nazorat sinovida qatnashish uchun so'rovnomanini davlat xizmatlari markazlariga shaxsan borib yoki YIDXP (my.gov.uz)da to'ldirgan holda ro'yxatdan o'tadi. Birinchi marta kasbiy sertifikat olish bo'yicha nazorat sinovida ishtirok etish uchun talabgordan to'lov undirilmaydi va nazorat sinovi qoida tariqasida, har yili mart-may oylarida test shaklida o'tkaziladi. Agar talabgor 56 va undan yuqori ball to'plasa, nazorat sinovidan o'tgan hisoblanib, elektron shakldagi sertifikat uning shaxsiy kabinetiga yuboriladi. Navbatdan tashqari nazorat sinovida ishtirok etib, yetarli ball to'play olmagan talabgor bilan tuzilgan mehnat malakasi yetarli bo'lmagani bois lavozimiga yoki bajarayotgan ishga muvofiq emasligi sababli bekor qilinadi. Bu o'z navbatida talabgor tugallagan oliy talim muassasasining ta'lim sifatiga baho berish hamdir. Shu bois nazorat sinovida yetarli ball to'play olmagan talabgor (bitiruvchi) haqida u tugallagan oliy talim muassasasiga reklamatsiya yuborilishi belgilanmoqda.

Biroq qarorda bitta noaniq holat ham mavjud. Ya'ni, "Yetarli ball to'play olmagan talabgor bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor bo'lgandan so'ng talabgor sifatida nazorat sinovida ishtirok etish imkoniyati fuqarolar uchun yaratiladimi?", degan savolga javob yo'q. Binobarin, mehnat shartnomasi yetarli ball to'play olmagan uchun bekor bo'lganlar uchun ham nazorat sinovida qatnashish tartibi belgilanishi maqsadga muvofiq.

**Bexro'z JO'RAYEV,**

Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



Bugungi kunda xorijiy davlatlarning ta'lim sohasidagi amaliyotida oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri xayriya (Endowment) fondning tashkil etilishi va uni samarali boshqarish ekanini ko'rish mumkin.

O'zbekistonda mazkur soha o'rganilmagani va xayriya fondlarining mablag'larini sarflash va boshqarish yo'nalishida ilmiy ishlar mavjud emasligi ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga qisman putur yetkazadi.

Oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda xayriya fondlarining (Endowment) ahamiyati va ularni boshqarish yuzasidan asosan xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilib, xulosalar taqdim etilgan.

### XAYRIYA FONDI YOKI ENDOWMENT

Ta'lim sohasidagi xayriya fondi yoki Endowment – bu ta'lim boshqaruvida menejmentni kengroq joriy etish, ta'limni biznesga aylantirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bank depozitlaridagi qo'yimlar, ko'chmas mulk va boshqa investitsiyaviy pul mablag'larining donorlar tomonidan ta'lim tashkilotiga beg'araz va qaytarmaslik sharti bilan yo'naltirilgan pul mablag'larini hisoblanadi.

O'zbekistonda Endowment – xayriya fondlari yaxshi rivojlanmagani va to'g'ri tashkil etilmagani va hozirda mavjud bo'lgan 213 ta ta'lim tashkilotlarining deyarli 99.9 foizida (TDYU bundan mustasno) mazkur toifadagi fondlar mavjud emasligi va sohada yetarli bilim va ko'nikma, uni qanday boshqarish va rivojlantirish salohiyati yetarli emasligini ko'rish mumkin.

### RIM IMPERATORI MARK AVRELIY O'Z HISOBIDAN MABLAG' AJRATGAN

Dunyo tarixida birinchi ta'lim tashkilotiga xayriya eramizdan avvalgi 176-yilda Rim imperatori Mark Avreliy tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, imperator tomonidan katta shaharlardagi o'quv yurtlarida Aristotel, Platon va boshqa antik davr olimlarining ilmiy merosini o'rganish uchun kafedralar tashkil etilib, moddiy-texnik baza bilan ta'minlash uchun har yili o'z hisobidan mablag' ajratgan. Bu xayriya fondlarini tashkil qilish uchun ilk tamal toshi hisoblanib, keyinchalik davlat amaldorlari tomonidan ham pul mablag'larining ehson qilinishiga turtki bo'lgan.

Prezidentimizning 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. Unga ko'ra mamlakatdagi 36 ta oliy ta'lim tashkilotlariga moliyaviy mustaqillik berilishi, moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim tashkilotlariga qonunchilikda nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tatbiq etilishini, ijtimoiy soliqning pasaytirilgan stavkasi qo'llanilishi va boshqa turli masalalar belgilangan.

## Oliy ta'limni moliyalashtirishning NOAN'ANAVIY SHAKLLARI



Angliya davlatida qirollik oilasiga qarashli ta'lim tashkilotlari qirolning shaxsiy mablag'larini orqali moliyalashtirilgan. Sharq mamlakatlari va arab dunyosida islom dini vujudga kelganidan so'ng ta'limga alohida e'tibor berilishi va din, siyosat, fiqhshunoslik hamda shariat axkomlarini o'rganish uchun markazlar tashkil etilib, ularni moliyalashtirishga alohida e'tibor berilgan.

Islom olamida universitetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda islom mamlakatlarida ta'lim uchun vaqf ishlab chiqilgan. Shu maqsadda ta'lim uchun vaqf g'oyasi paydo bo'ldi. Ushbu konsepsiyani qo'llashda, vaqf mablag'larini ta'lim sohasida joylashtirish mahalliy va xalqaro talabalar uchun bepul ta'lim kabi ko'plab imtiyozlarni keltirib chiqarishi hisobga olinadi.

Dastlabki davrda jamiyat faqat ta'limdagi vaqf amaliyoti yer va binolar kabi asosiy vositalar bilan cheklangan, ularning aksariyati o'z aktivlarini madrasalar yoki maktab ta'limining boshqa shakllarini rivojlantirishga bag'ishlagan. Biroq, aholining tez o'sishi tufayli yer va binolar miqdori cheklangani, bundan tashqari, asosiy vositalar vaqf hisobiga tashkil etilgan-da operatsion moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar vujudga kelgani sababli hozirda ta'lim sohasini rivoj-

lantirish uchun naqd pul shaklida vaqf amaliyoti ishlab chiqilgan.

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi juda taraqqiy etgan AQSh va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda Endowment – investitsiya fondi yordamida mablag' jalb etish orqali ta'lim tashkilotining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga harakat qilinadi.

AQShdagi Garvard universiteti xayriya fondi qadimiy fondlardan bo'lib, dastlabki xayriyani 1649-yilda o'z bitiruvchilaridan yer uchastkasi ko'rinishida olgan. 2024-yil yanvar holatiga ko'ra, ushbu tashkilotning fond mablag'larini miqdori 53,2 mlrd dollarni tashkil etgan.

Mazkur mablag'lar Garvard universitetining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga, muassasadagi fakultet, kafedra va shaxsiy tarkibning xarajatlariga (oylikdan tashqari), texnik va ko'makchi xodim sifatida ishlayotgan talabalarining oylik maoshlariga va boshqa faoliyatlariga sarflanadi.

Endowment fondlarini tashkil qilish ta'lim sifatini oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayrim hollarda bitiruvchilar faoliyatining keyingi muvaffaqiyatlari bilan belgilanadi. Ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng, hayotda muvaffaqiyatga erishgan bitiruvchilar o'z mablag'laridan ta'lim o'quv yurtlariga xayriya qilib, fond mablag'larining oshishiga va ta'limning

rivojlanishiga hissa qo'shadilar.

AQShdagi mavjud aksariyat universitetlar birinchi navbatda hususiy bo'lganligi sababli ular tomonidan xayriya fondlarini tashkil qilish va tijoratlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari xayriya fondlariga kelib tushgan mablag'lar hisobidan universitetda saylangan Kuzatuv kengashlari tomonidan har bir fakultet va kafedralar kesimida alohida sarf-xarajatlar uchun, kafedrada faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilarning har biri uchun pul mablag'larini taqsimlanishi nazorat qilinadi.

Taqsimlash sxemasi mamlakatda va xorijda tahsil olayotgan talabalar uchun stipendiyalar, yordamga muhtojlarga ta'lim kreditlari berish orqali va o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda amaliyot o'tashi uchun ham amalga oshirilishi mumkin.

AQSh singari Angliyada ham ta'limni moliyalashtirishda xayriya fondlariga alohida ahamiyat berilgan. Angliyadagi ta'lim endowment fondlari tomonidan oila daromadi va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlikni targ'ib qilib, ingliz oilalaridagi uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarning asosiy hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, kelajakdagi karyera ta'limga bog'liqligi, yoshlarni mehnat va keyingi oliy ta'limga tayyorlash uchun targ'ibot o'tkazib, o'z universitetlariga mablag' jalb etishadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda xayriya-endowment fondlarining uch turi amaliyotda qo'llaniladi. Birinchi, cheklanmagan endowment – xayriya olgan tashkilotning xohishiga ko'ra sarflanishi, saqlanishi, investitsiya qilinishi va taqsimlanishi mumkin bo'lgan, ikkinchi, muddatli odatda ma'lum bir vaqt yoki ma'lum bir hodisadan so'ng sarflash mumkin bo'lgan aktiv; uchinchi, kvazi xayriya – bu shaxs yoki muassasa tomonidan fondning ma'lum bir maqsadga xizmat qilishi niyatida berilgan xayr-ehsondir. Bunda donor tomonidan aynan ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha sarflanadi yoki taqsimlanadi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish orqali xalqaro darajadagi oliy o'quv yurti maqomini olishga imkon yaratiladi.

### Kozimbek G'OZIYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida tadqiqotchisi

## NAYMANLIKLAR UCHUN MA'RIFIY SOVG'A



Adliya tashabbusi bilan respublikamiz bo'yab 4-sektor hududidagi eng chekka mahallalarda yoshlar uchun kichik kutubxonalar foydalanishga topshirilmog'da.

"Ziyo\_ulas" xeshtegi ostida amalga oshirilayotgan ushbu ma'rifiy loyihadan Samarqand viloyati ham chetda qolayotgani yo'q. Adliya boshqarmasi boshchiligidagi viloyatning Toyloq tumani, "Nayman" mahallasida mo'jazzgina kutubxona aholi ixtiyoriga topshirildi.

Kutubxonada turli janrdagi kitoblar, jurnallar mavjud. Xususan, jahon va o'zbek adabiyoti namoyondalari – Tohir Malik, Xudoyberdi To'xtaboyev, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, Xosiyat Bobomurodova,

O'lmas Umarbekov, Napoleon Xill, Artur Xeyli, Teodor Drayzerlarning qimmatli asarlarini o'qish mumkin.


Ta'kidlash o'rinni, bugungi kunda mazkur mahallada 3 ming 720 nafar aholi istiqomat qiladi va ularning 1 ming 100 nafarini yoshlar tashkil etadi. Endilikda mahalla ahli va yoshlar kutubxonadan o'zlariga qulay vaqtlarda foydalanishi mumkin. To'g'ri, bu katta yangilik yoki olamshumul voqea emasdir, ammo ziyo ulashishdek xayrli ishda muhim qadamdir. Uni siz ham davom ettirishingiz, to'ldirishingiz mumkin.

### Olimjon MAMAYUSOPOV,

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



## 4 TALQIN

MAKTABDAN  
OGOHLANTIRISH  
XATI KELD

– Yaqinda maktabdan ogohlantirish xati keldi. Undagi talablarni bajarmagan taqdirda jarima solish haqida yozilgan. Maktab ma'muriyati o'quvchining ota-onasini jarimaga tortishga haqlimi?

– Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarini bajarmaslik shunday holatga olib kelishi mumkin. Qonunchilikka ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarini bajarmaslik 340 ming so'mdan 1 mln 700 ming so'mgacha jarima solishga sabab bo'ladi. Shuningdek, bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha (3 mln 400 ming so'mdan 5 mln 100 ming so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

– Jarimaning necha foizi ixtiyoriy ravishda to'langanda, uning qolgan qismini to'lashdan ozod etiladi?



– Prezidentimizning joriy yil 9-yanvardagi "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, tadbirkorlarga bir qator qulayliklar yaratilmoqda. Ulardan biri 2024-yil 1-martdan litsenziyalanadigan faoliyat va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning 22 turi bekor qilinayotganidir.

Shuningdek, mazkur sanadan boshlab litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun yuridik shaxslarga qo'llanilgan jarima summasi miqdorining 50 foizi 15 kun ichida, 70 foizi 30 kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langanda, huquqbuzar jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod etiladi. Xususan, litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish jarayonida video aloqa vositalari yordamida talabgorlarning litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar talab va shartlariga muvofiqligini masofadan turib baholash tartibi ishga tushmoqda. Tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazishda ham uning pochta manzili sifatida muassising turar joyini ko'rsatishga ruxsat beriladi.



– Nogironlar uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda cheqirmalar bormi?

– Albatta mavjud. Bunday imtiyozlar 2021-yil 1-noyabrdan amaliyotda bo'lib, undan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslar, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlaridan foydalanishda qonunchilik hujjatlarida belgilangan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlar bo'yicha foydalanishlari mumkin. Faqat tadbirkorlik faoliyati maqsadlarida yoki yuridik shaxslar vakili sifatida murojaat qilingan holatlar bundan mustasno.

Bundan tashqari, davlat xizmatlari markazlari, "Litsenziya" axborot tizimi hamda YalDXP orqali ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatdan uch ish kunidan ortiq vaqtga kechiktirilganda, ariza beruvchilarning murojaatlariga asosan, xizmatdan foydalanish uchun to'langan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlarning 50 foizi ularga bir ish kunida qaytariladi.

– Toshkent moliya institutida o'qib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti diplomini olish mumkinmi?



– Davlatimiz rahbarining joriy yil 7-fevraldagi "Iqtisodiyot sohalarini uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qayta tashkil etilib, unga Toshkent moliya instituti va Fiskal institut qo'shib yuborildi hamda "Ta'lim – fan – innovatsiya – raqamlashtirish" ekotizimini va sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion tadqiqotlar transferini samarali yo'lga qo'yish universitetning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. Bunda universitet iqtisodiyot, moliya va soliq sohalarini uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda metodik ta'minot bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Toshkent moliya instituti va Fiskal institutda tahsil olayotgan barcha talabalar o'qishini universitetda davom ettiradi hamda 2023/2024-o'quv yilidan bitiruvchi kurs talabalariga universitet diplomi beriladi.

Dilbar AMINOVA,

Kattaqo'rg'on shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi katta mutaxassis

Prezidentimizning 2021-yil 29-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risidagi Nizom"ning 21-bandiga muvofiq, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hamda ularni farzandlikka yoki vasiylikka (homiylikka, patronatga) olgan fuqarolarga markazlar tomonidan bepul yuridik xizmat ko'rsatilishi belgilangan.

Yetim va ota-ona  
qaramog'idan mahrum  
bo'lgan bolalarni  
UY-JOY BILAN  
TA'MINLASHDAGI  
MUHIM JIHATLAR

Bugungi kunda Sirdaryo tuman adliya bo'limi, yuridik xizmat ko'rsatish markazi va davlat xizmatlari markazi xodimlari hamkorligida tumanda ro'yxatga olingan 33 nafar yetim bolalar holidan xabar olinib, ularga huquqi, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan ko'mak berib kelinmoqda.

Ota-onasiz va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash xususida to'xtalib o'tsak.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-oktabrdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida tasdiqlangan "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi Nizom"ga binoan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uy-joylar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan ko'chmas mulkning birlamchi bozoridagi shahar va tumanlarda qurilgan ko'p kvartirali uylar, tegishli tuman (shahar)da ko'chmas mulk birlamchi bozorida ko'p kvartirali uylar mavjud bo'lmaganda, hududiy "Xalqparvar" komissiyalari xulosasiga asosan kvartiralar ko'chmas mulkning ikkilamchi bozoridan te-

gishli mezonlarga muvofiq holda xarid qilingan uylar hisobidan ajratiladi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uy-joyga muhtoj yetim bolalar ro'yxatida turganida yoki birlashtirilgan uy-joyga ega bo'lganida, yetim bolaning yoshi 23 yoshdan katta bo'lmagan davrda, ta'lim muassasalarida, ijtimoiy uylarida, farzandlikka olgan oilalarda, vasiy (homiyl) qaramog'ida bo'lgan to'liq davrda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmatni o'tash davrida yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarida bo'lgan davrda meros bo'yicha hamda davlat tomonidan beriladigan uy-joy olishga va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqini saqlab qoladi.

O'quv-tarbiya muassasalari va tuman (shahar) hokimliklari bolalarni himoya qilish shu'balari uy-joyga muhtoj yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ular o'quv-tarbiya muassasasida, farzandlik, vasiylik (homiyl, patronat) qaramog'ida bo'lish muddati tugashidan bir yil avval uy-joyga muhtojlar sifatida "onlayn-navbat" axborot tizimiga kiritiladi. Muddatida "onlayn-navbat" axborot tizimiga kiritilmay qolib ketgan, uy-joyga muhtoj bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar "onlayn-navbat" axborot tizimiga kiritilmay qolib ketgan, uy-joyga muhtoj bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ular 18 yoshga to'lgan yilda ko'p kvartirali uy-joylardan umumiy maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo'lmagan 1 xonali, voyaga yetgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar o'rtasida nikoh tuzilgan hollarda, 50 kvadrat metrdan kam bo'lmagan 2 xonali kvartiralar ajratiladi. Bunday nikoh tuzilgan holda oilaning ikkinchi a'zosi ham uy-joy bilan ta'minlangan, deb hisoblanadi va teng mulkiy huquqqa ega bo'ladi. Nogironligi bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun kvartiralar ko'p qavatli uylarning uchinchi qavatigacha ajratiladi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uy-joylar mulkka egalik qilish huquqi asosida, biroq ular 30 yoshga to'lgungacha qadar uy-joyini sotish, hadya qilish yoki garovga qo'yish yoxud ijaraga berish hamda uy-joyda o'zi va oila a'zolari (eri yoki xotini, farzandlari)dan tashqari boshqa fuqarolarni doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish huquqisiz ajratiladi.

Bunda yetim bola yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolaning asoslangan murojaati asosida mahalliy hokimliklar tomonidan uy-joyning umumiy maydonini kengaytirish va mazkur bandeda nazarda tutilgan talablarni saqlab qolish sharti bilan sotishga ruxsat beriladi.

Oybek NIYATOV,

Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i



Keyingi vaqtlarda ayrim odamlarning nafs yo'lida bir-biriga qilayotgan tajovuzlari, bosqinchilik va vahshiyliklarining turi, soni, shakl-shamoyili ortib bormoqda. Sudlarda ko'rilayotgan ba'zi turdagi jinoyat ishlari kishini ogohlikka chaqiradi, hushyor torttiradi.

# Bosqinchilarning "GAI"lar

**Q**uyidagi jinoyat fabulasi yovuz niyatli odamlar yonimizda yashayotganini negadir sezmayotganimiz, ularni ko'rib-ko'rmaslikka olayotganimiz, e'tiborsizligimizning og'ir asoratidan dalolatdir.

## TOVLAMACHILARNING "PORTRETI" DAGI CHIZGILAR

"GAI" niqobidagi bosqinchilar to'rt kishi edi. Qarindosh, qo'shni, qo'shni-ning hamtovog'i. Biri qirqdan oshib ham biror karomat ko'rsatmagan, biri o'ttiz yoshdan oshsa-da, hanuzgacha to'g'ri yo'lini topa olmagan, biri esa muqaddam sudlangan bo'lsa ham ko'zi ochilmagan, yana biri o'z xatosini tushunmagan, qisqasi, yaxshilikdan uzoqlashgan kimsalar. Bu odamlarni yomonlik va tekin boylilik orttirish vasvasasi "do'stlashtirgan". Sanjar Adizov (ism-shariflar o'zgartirilgan) 1980-yilda Samarqand viloyatida tug'ilgan. Ma'lumoti oliy, oilali, 7 nafar farzandning otasi. Tadbirkorlik bilan shug'ullangan, muqaddam sudlanmagan. Rustam Shodiyev 1997-yilda Samarqand viloyatida tug'ilgan. Ma'lumoti o'rta-maxsus, oilali, 2 nafar farzandi bor. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi, muqaddam sudlanmagan. Vitaliy Son 1981-yilda Toshkent viloyatida tug'ilgan. Ma'lumoti o'rta maxsus, oilali, ikki nafar farzandi bor. Vaqtincha ishsiz, muqaddam jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tuman sudining 2021-yil 24-noyabrdagi hukmiga ko'ra, 2 yil axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan. Andrey Nikiforov 1994-yilda Sirdaryo viloyatida tug'ilgan. Ma'lumoti o'rta maxsus, oilali, ikki nafar farzandi bor. Muqaddam jinoyat ishlari bo'yicha Chinoz tuman sudining 2022-yil 26-dekabrda hukmiga ko'ra, 5 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

## PUL VASVASASI: 115 MING AQSH DOLLARI...

To'rt g'arazgo'yning qaltis o'yini 2022-yil 11-avgust kuni ertalabki soat 9:50 da quyidagi "ssenariy" asosida boshlangan. Odam o'g'irlari S. Adizov, R. Shodiyev, V. Son va A. Nikiforovlar S. Adizov boshqaruvdagi "VAZ 2101" rusumli avtomashinada Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Istirohat ko'chasiga keladi. Mashinani panarokka joylashtirib, V. Son o'zida shubha uyg'otmaslik uchun avvaldan tayyorlab qo'yilgan Yo'l patrul xizmati xodimi maxsus kiyimini kiygan holda go'yoki "Tosh-

kent shahar arxivi" binosining oldida xizmat o'tayotgan "GAI" xodimi sifatida ko'chadan harakatlanib kelayotgan fuqaro O. Qurbonovning boshqaruvdagi "Wolkswagen" rusumli avtomashinani qo'ldagi maxsus tayoqcha (jezl) yordamida to'xtatib, mashinaning yukxonasini tekshirish bahonasida uni mashinasidan tushiradi. Shu vaqtda ularning yoniga go'yoki alohida vazifalarni bajaruvchi otryad xodimi sifatida avvaldan tayyorlangan maxsus kiyimni kiyib, pnevmatik pistolet, qo'l kishani va elektroshoker bilan qurollangan holda R. Shodiyev, A. Nikiforovlar kelib O. Qurbonovni qo'llaridagi pnevmatik to'pponcha bilan qo'rqitib, o'z avtomashinasi orqa o'rindig'iga o'tqazadi va qo'llariga kishan taqadi. Ko'zini mato bilan bog'lab, boshiga esa qora rangli xalta kiyg'azib, yonida bo'lgan 7 ming AQSh dollarini bosqinchilik yo'li bilan qo'lga kiritishadi.

Bosqinchilar bu bilan qanoatlanmay, o'z jinoyat harakatlarini davom ettirishadi. Olimjon Qurbonovni tutqin holatda to'pponcha o'qalgan holda harakatlanishga qo'ymasdan o'zlari ijaraga olgan uyga olib borishadi. U yerda unga 500 ming AQSh dollari topib berishini talab qilishadi. Buncha pulni topib bera olmasligini eshitib, agar topib bermasa oilasi, bolalarini o'ldirish bilan qo'rqitib, qancha summa bera olishini so'raydi. Oilasi, bolalarining hayotini xatarga qo'yishni istamagan O. Qurbonov ularga aytilgan pulni topib berish uchun undan qarz olgan ishchilaridan biri Natalya Yefimovaga qo'ng'iroq qilib, zudlik bilan 115 ming dollar topib kelishini iltimos qiladi. Aytilgan mablag'ni belgilangan joyga olib kelgan N. Yefimova pulni mashina oynasidan oldingi o'rindiqda o'tirgan O. Qurbonovning qo'lga tutqazadi. Shu bilan bosqinchilikning bu "sahna ko'rinishi" yopiladi.

Tovlamachilar paketdagi 115 ming AQSh dollarini olgach ham "o'lja" sini qo'yib yubormaydi. Aksincha yo'lida davom etib, undan mashina suyanichig'ini orqaga tushirishni talab qilgach, Olimjon Qurbonovning xayoliga "ular meni o'ldirishmoqchi shekilli" degan dahshatli o'y keladi va yurib turgan mashina eshigini ochib sakrashdan boshqacha chora yo'qligini bilib, mashina eshigidan o'zini pastga tashlaydi. U yerdagi odamlardan yordam berishini so'raydi, ukasiga va ichki ishlar idorasiga qo'ng'iroq qilib bo'lgan voqeadan xabardor qiladi.

## FOSH ETILGAN QING'IRLIK

Qing'ir ishning qiyig'i avval qirq yilda chiqqan bo'lsa, hozir qirq kunda, balki undan ham oldinroq chiqishiga

ko'p bor guvoh bo'layapmiz. Xuddi shunday "qaroqchi"lar O. Qurbonovning pullarini talon-toroj qilib, maqsadimizga yetdik, hammasi xamirdan qil sug'urgandek bo'ldi, deya o'ylab chuchvarani xom sanagan edi. Ular tovlamachilik yo'li bilan egallangan pullarni o'zaro taqsimlab, voqea joyidan yashiringan bo'lsalar-da, jinoyat jazosiz qolmadi.

Jinoyatchilarning haqiqiy basharasi tergovda ochildi. Ko'pchilikda "Xo'sh, ular nima sababdan aynan O. Qurbonovning yo'lini poylab, uning pullarini o'marish "operatsiyasi"ni o'ylab topishdi? O. Qurbonov bilan ularning o'rtasida nima bor?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Kalavaning uchi qayerdan boshlanishini bayon qiladigan bo'lsak, hamma gap bu fitnaning boshida turgan S. Adizovda ekani ayon bo'ldi. 2020-yilda texnikumda birga o'qigan oshnasi Sh. Tursunov unga "Alutex" kompaniyasiga ishga o'tganini aytib, kompaniyaning Chirchiq shahridagi dilerligini ochishni taklif qilib, uni korxonada savdo bo'limi boshlig'i O. Qurbonov bilan tanishtirgan.

S. Adizov esa bu taklifga rozi bo'lib, Chirchiqda dilerlik ishini boshlab yoniga qayin opasining turmush o'rtog'i (bojasi) R. Shodiyevni ham ishga chaqirgan. Keyinchalik bu ishga tikkan sarmoyasiga qaramasdan ishni yaxshi yuritib olmagani bois zarar ko'rgani va bu zararni qanday qilib bo'lsa ham O. Qurbonovdan undirish yo'llarini izlashga tushgani kishini taajjublantiradi. Aslida O. Qurbonovning bu yerda hech qanday aybi ham, uning ko'rgan zarariga aloqasi ham yo'qligi, uning S. Adizovni moliyaviy qiyin ahvolga solib qo'yganini tasdiqlovchi biror bir dalil ham mavjud emasligi ma'lum bo'ldi. Ammo shuni bilaturib, pul vasvasasiga tushib, o'zicha alamini olishni qo'shnisi Vitaliy bilan maslahatlashib, shum "reja"ni tuzishgan. Bojasi R. Shodiyev ham g'arazgo'ylikda undan qolishmaydi. V. Sonni esa V. Nikiforov bu operatsiyaga jalb qilgan. V. Nikiforov bosh "rejissyor"-likni qo'lga olib, "maxsus" kiyimlar va pnevmatik to'pponcha, elektroshokerni, Jiguli avtomashinasini hal qilgan. Ijaraga uy hamda yana bitta avtomashina ham xuddi shu "rejissyor"ning zimmasiga tushgan. Reja tayyor bo'lgach, O. Qurbonovning o'tadigan ko'chasini,



vaqtini oldindan biladigan insoniylik qiyofasini yo'qotgan kimsalar uning yo'lini poylab boshlashdi. Birinchi kuni "ov" baroridan kelmadi. Chunki O. Qurbonovning mashinasida bolasi borligi xalaqit berdi. Ikkinchi kuni esa bosqinchilar o'z maqsadlariga erishgandek bo'ldi. Ammo...

## QONUN USTUVOR – JAZO MUQARRAR!

Yomonlik jazosiz qolmaydi, G'arazgo'ylik iskanjasida odam o'g'irlab, bosqinchilik va tovlamachilik yo'li bilan, qurol o'qalib, uning mol-mulki-ga egalik qilishga qaror qilganlarning jinoyat ishi jinoyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudi ochiq sud majlisida ko'rib chiqildi.

Sud hukmiga ko'ra, Jinoyat ko-deksining tegishli bandlariga asosan S. Adizovga 15 yil, V. Nikiforovga 14 yil, V. Songa 13 yil 9 oy, R. Shodiyevga 13 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

**Akrom ARIPOV,**  
Oliy sud bosh konsultanti,  
**Marusa HOSILOVA,**  
"Inson va qonun" muxbiri



## 6 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

## Davomi. Boshlanishi 1-betda

Bundan tashqari, aholida "my.gov.uz", "yurxizmat.uz" va "advice.uz" portallaridan foydalanish tartibi, bepul ko'rsatiladigan davlat xizmatlari turlari, murojaat qilish, sud vakolatiga kiruvchi masalalar, sudga murojaat qilish tartibi, muddatlari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa huquqiy hamda davlat xizmatlari ko'rsatilishi mumkin.



## "HECH BIR SHAXS HUJJATSIZ QOLMAYDI"

Albatta, huquqiy aksiya davomida tilga olingan yo'nalishlarda muammolarga duch kelinmoqda. Jumladan, Yangiyo'l shahrida fuqaro A. Boltayevaning 4 nafar farzandi va 1 nafar nabirasida tug'ilganlik haqidagi guvohnoma hamda boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjatlari yo'qligi aniqlandi. Ularga dastlab tug'ilganlik haqidagi guvohnomalar rasmiylashtirildi. Shuningdek, oilaning 11 yoshli farzandi umumta'lim maktabining 1-sinfiga joylashtirildi.

Yoki Izboskan tumanida yashovchi, 60 yoshli fuqaro Inoyatxon ayaning tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi mavjud bo'lmagan. Shu bois tuman adliya bo'limi tomonidan tug'ilganlik fakti sud idoralari orqali tasdiqlanib, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma va shaxsni identifikatsiyalovchi ID-karta rasmiylashtirildi. Ohangaron shahar FHDY bo'limi tomonidan esa 2010-yildan buyon shar'iy nikoh asosida yashab kelayotgan X.Sh. va U.M.larning qonuniy nikohi qayd etildi. Tumanning Navbahor mahallasida istiqomat qilayotgan, imkoniyati cheklangan, tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan fuqaro ham adliya xodimlaridan mamnun. Negaki unga sayyor xizmat ko'rsatilib, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumani "Yunus Rajabiy" mahallasida istiqomat qiluvchi 92 yoshli Bella Dorogininaning biometrik pasportining amal qilish muddati tugagan. Binobarin, tuman davlat xizmatlari markazi va 1-son FHDY bo'limi tomonidan ayolga sayyor davlat xizmati ko'rsatish orqali shaxsni identifikatsiyalovchi ID-karta rasmiylashtirildi.

Bunday misollarni har bir tuman (shahar) kesimida keltirish mumkin. Huquqiy aksiya doirasida dastlabki 15 kunda 10 ming 324 nafar shaxs tegishli hujjatlarga ega emasligi aniqlandi. Shu bois ularning 392 nafariga tug'ilganlik haqida guvohnoma, 1 ming 391 nafariga tug'ilganlik haqida takroriy guvohnoma, 438 nafariga shaxsni identifikatsiyalovchi ID-karta rasmiylashtirib berildi. Shar'iy nikoh asosida yashab kelayotgan 558 nafar fuqaroning nikohi qonuniy ravishda qayd etildi. Shuningdek, 41 nafarini tug'ilganlik faktini belgilash yuzasidan sudlarga arizalar kiritildi. Qolaversa, 2 ming 79 ta tadbirkorlik subyekti, 1 ming 83 nafar shaxsning ko'chmas mulki davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Bundan tashqari, 12 ming 734 nafar shaxsga elektron raqamli imzo berildi. Eng e'tiborlisi, huquqiy aksiyaga nafaqat adliya organlari, balki sud, ichki ishlar, tibbiyot muassasalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa vakolatli organlar xodimlari ham jalb etildi. Shu bilan birga, fuqarolarning murojaatlari joylardagi adliya organlarida tashkil etilgan maxsus shtablar, "1148" "Ishonch telefoni" hamda adliyaaksiya\_bot ([https://t.me/adliyaaksiya\\_bot](https://t.me/adliyaaksiya_bot)) telegram kanali orqali tezkorlik bilan qabul qilinishi yo'lga qo'yilgan.

**Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazlari va FHDY organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi**

## FERMERGA HUQUQIY YORDAM KO'RSATILDI



Paxtachilik Irisqulovlar oilasi chorvachilik sohasida ishni yo'lga qo'yib, "Nasldor zotli mollar" fermer xo'jaligi misolida ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Yaqinda tuman adliya xodimlari ushbu xo'jalikda bo'lishdi. Xo'jalik "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" huquqiy aksiyasi doirasida qayta ro'yxatdan o'tkazildi.

Adliya xodimlari tomonidan olib borilgan o'rganishlar chog'ida mazkur fermer xo'jaligi rahbari nafaqaga chiqqani, xo'jalik yurituvini esa farzandlariga topshirmoqchiligi, biroq bu borada qonunchilik talablaridan biron bexabarligi sabab ish cho'zilayotgani aniqlangan edi.

Tuman davlat xizmatlari markazi xodimlari tomonidan fuqaroga mazkur masalada huquqiy yordam ko'rsatilib, xo'jalik joyiga chiqqan holda sayyor tartibda qayta ro'yxatdan o'tkazildi. Ta'kidlash kerakki, ayni paytda xo'jalikda 20 bosh qoramol mavjud bo'lib, 3 nafar ishchi ish bilan ta'minlangan. Fermer xo'jaligining yangi rahbari – Teshaboy Irisqulov kelgusida xo'jalik faoliyatini kengaytirib, ishchi kuchini ko'paytirish, tumanning eng ishbilarmon fermerlari qatoriga kirishni maqsad qilgan.

**Hazrat MEYLIQULOV,**  
Samarqand shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi xodimi

## Davomi. Boshlanishi 1-betda

## TOMDIDA ADLIYA KUTUBXONASI



Kutubxonaning ochilish tadbirida faxriylar, yozuvchilar, yosh ijodkorlar, jurnalistlar, sektor rahbarlari va davlat tashkilotlari mas'ul-lari ishtirok etishdi. "Ziyo'ulash" chellenji doirasida Prezident asarlari, o'zbek adabiyoti durdonalari, jahon adabiyoti, huquqiy va bolalar adabiyotiga oid 300 ga yaqin kitoblar, shuningdek, adabiyotlarning elektron va audio shakli jamlanmasi sovg'a qilindi.

Kutubxonada aholi, ayniqsa, yoshlar bo'sh vaqtini unumli o'tkazishi uchun barcha sharoitlar yaratildi. Kitoblar bilan birga

zamonaviy va qulay mebel jihozlari, kitob javonlari, kompyuter jamlanmalari taqdim etildi. Tomdida aholi tarqoq joylashgan, ovul fuqarolarining olis yo'l bosib kelishi inobatga olinib, sayyor ko'chma kutubxona ham tashkil etildi. Aksiya doirasida sayyor kutubxona orqali nogironligi bor yoshlar a'zolikka qabul qilinib, kerakli kitoblar uyma-uy xonadonlarga yetkazildi.

**Navoiy viloyat adliya boshqarmasi**  
Axborot xizmati

## O'QITUVCHINING MUROJAATI O'RGANILDI



Fuqaro X.S. To'rtko'l tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 68-sonli ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumo'rta ta'lim maktabi direktori A.X. xatti-harakatidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

O'rganish natijasida, haqiqatdan ham X.S. mazkur ta'lim muassasasida ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi sifatida ishga qabul qilinishi, biroq unga ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasida shartlashilgan ish berilmaganlik holati aniqlandi.

Adliya bo'limi tomonidan xodimning buzilgan mehnat huquqi tiklanib, unga mehnat shartnomasida shartlashilgan ish berilishi ta'minlandi. Shuningdek, maktab direktori A.X.ga nisbatan tegishli javobgarlik masalasi ko'rib chiqildi.

**Ilhom QURBANBAYEV,**  
To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



**Mualliflik huquqi, patentlar, tovar belgilari, foydali model-lar va sanoat namunalari intellektual mulk huquqlarining turlaridir. Mualliflik huquqi kitoblar, musiqa, filmlar kabi asl mualliflik asarlarini himoya qilib, egasiga asarlarini ko'paytirish, tarqatish va namoyish qilish uchun mutlaq huquqni beradi.**

## MUALLIFLIK HUQUQINING CHEKLANISHIDA TALAB VA SHARTLAR MAVJUD



Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va moddiy rag'batlantirish orqali ixtirochilarni, ijodkorlarni rag'batlantiradi. Yangilangan Konstitutsiyamizning 53-moddasida "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi" deya qayd etilgan. Chunki intellektual mulk sohasi barcha davrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "Intellektual mulk" atamasi xalqaro amaliyotda 1967-yildan boshlab qo'llangan.

Mualliflik huquqi g'oyaning o'zini emas, balki uning ifodasini himoya qiladi va ro'yxatdan o'tishning haqiqiy bo'lishini talab qilmaydi. Ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda, AQShda mualliflik huquqi asar yaratilganda o'z-o'zidan himoya qilinadi. Biroq, asarni mualliflik huquqi idorasida ro'yxatdan o'tkazish qoidabuzarlik uchun sudga murojaat qilish va zararni talab qilish kabi qo'shimcha imtiyozlarni beradi.

Mualliflik huquqi asarlarini saqlash, nusxalash va ko'paytirish, mualliflik huquqi obyektlari mavjud bo'lgan davrda moddiy ne'matlardan kam baholanmaydi. Mualliflik huquqining cheklanishi O'zbekistonda mazkur huquqning muhim jihati. Shu bois muallif o'zi yaratgan asardan uchinchi shaxslarga foydalanishga ruxsat berishga yoki taqiqlashga haqli. Mualliflik huquqining buzilishi, kimdir himoyalangan asardan ruxsatisiz yoki litsenziya doirasidan tashqarida foydalansa, ko'paytira, tarqatsa yoxud ko'rsatsa, sodir bo'ladi.

Mualliflik huquqining cheklanishi huquq egasining ruxsatisiz himoyalangan asarlardan cheklangan foydalanishga ruxsat beruvchi huquqiy ta'limotdir. Mualliflik huquqini himoya qilish muddati mamlakat va asar turiga qarab farq qiladi. Lekin odatda, muallifning umri davomida va ularning vafotidan keyin ma'lum bir necha yil davom etadi.

Intellektual mulk huquqlari innovatsiya va ijodkorlikni rag'batlantirishi barobarida nafaqat ijodkorga, balki butun jamiyatga iqtisodiy foyda keltiradi. Biroq, ular munozarali bo'lishi mumkin. Mualliflik huquqining cheklanishi O'zbekistonda, ayniqsa, mamlakatning huquqiy tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha olib borayotgan sa'y-harakatlari sharoitida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston mualliflik huquqi bilan bog'liq "Bern Konvensiyasi", "Butunjahon intellektual mulk tashkiloti mualliflik huquqi to'g'risida"gi shartnoma va "TRIPS" shartnomasi singari bir qator xalqaro shartnomalarning a'zosi bo'lib, mazkur hujjatlar mualliflik huquqining rivojlantirishiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda mualliflik huquqining cheklanishi o'rganish odatda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni tartibga soluvchi qonunchilikni o'rganishni, shuningdek, ushbu huquqlarning turli istisnolari hamda cheklanishlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda mualliflik huquqining cheklanishini o'rganish raqamli texnologiyalar va internetning jadal o'sishi tufayli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa mualliflik huquqi va uni amalga oshirish uchun yangi muammolarni keltirib chiqardi.

Mualliflik huquqining cheklanishi O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni 24-moddasi asosida tartibga solinadi. Ushbu cheklavlarni ijodkorlar manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan muvozanatlash, jumladan, bilim olish, ta'lim olish va madaniy ishtirok etishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Mualliflik huquqini cheklashning ba'zi keng tarqalgan shakllari orasida mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallardan egasining ruxsatisiz tanqid, o'qitish, tadqiqot yoki yangiliklar hisoboti kabi muayyan maqsadlarda foydalanishga ruxsat beruvchi adolatli foydalanish yoki adolatli muomala kiradi. Boshqa cheklavlarga mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlar to'plami bo'lgan jamoat mulki va muayyan asarlarni muayyan sharoitlarda foydalanish uchun taqdim etilishini talab qiluvchi majburiy litsenziyalash kiradi.

Mualliflik huquqiga oid cheklavlarning ko'lami turli mamlakatlarning qonunchilik bazasida farq qiladi. Shuning uchun muayyan yurisdiksiyada qo'llaniladigan cheklavlarni va istisnolarni tushunish uchun tegishli qonun-qoidalarga amal qilish zarur. Ayni huquqqa oid cheklavlarni himoya qilinadigan asar turiga qarab farqlanadi.

Ta'kidlash lozimki, ba'zi guruhlar mualliflik huquqiga oid joriy cheklavlarni bilimlar tarqalishini cheklaydi va ijodkorlikka to'sqinlik qiladi, deb ta'kidlaydi. Ayrimlari esa ular ijodkorlar huquqlarini himoya qilish va kelajakdagi innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun zarur, deb ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston iqtisodiyot va texnologiya sohasini rivojlantirishda davom etar ekan, mualliflik huquqi masalalari yanada muhim ahamiyat kasb etaveradi. O'zbekistonda mualliflik huquqini cheklashning maqsad va vazifalari mualliflik huquqi egalari va foydalanuvchilar manfaatlarini muvozanatlash, yangilik hamda ijodkorlikni rag'batlantirish, so'z erkinligi himoya qilish, axborot olish imkoniyatini va xalqaro majburiyatlarga rioya etilishini ta'minlashdan iborat.

**Mohinur BAHRAMOVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
dotsenti v.b.

EE'OLON

### O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi notarius lavozimlariga tanlov o'tkazishini

## E'OLON QILADI

Navoiy viloyatida

Tomdi tuman davlat notarial idorasida 1 nafar

Qoraqalpog'iston Respublikasida

Bo'zatov tuman davlat notarial idorasida 1 nafar

HUJJATLARNI TAQDIM ETISHNING OXIRGI SANASI  
2024-YIL 1-MART

"Notariat to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasiga asosan yigirma besh yoshdan kichik va oltmish besh yoshdan katta bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida uch yillik ish tajriga ega bo'lgan, shu jumladan notarial idorada kamida bir yil stajirovka o'tagan, malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi notarius bo'lishi mumkin. Sudyalik lavozimida kamida besh yil ishlagan yoki notarius yordamchisi yoxud adliya organlarining notarial faoliyatiga rahbarlik qilish va ushbu faoliyatni nazorat qilish bilan bog'liq lavozimlarida kamida uch yil ishlagan shaxslar uchun stajirovkadan o'tish talab qilinmaydi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, adliya organlarining ishi notariat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruv xodimi yoki advokat sifatida kamida uch yil ishlagan shaxslar, agar ularning vakolatlari tugatilgan paytdan e'tiboran besh yil o'tmagan bo'lsa, olti oy muddat stajirovka o'taydi.

Quyidagilar notarius bo'lishi mumkin emas:

- muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxs;
- qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs;
- notarius, advokat, tergovchi, surishtiruvchi, prokuror, sudya yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolatlari o'z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun tugatilgan shaxs – uch yil mobaynida.

Davlat notarial idorasi notariusini lavozimiga tayinlash bo'yicha tanlov va xususiy notariat faoliyat bilan shug'ullanish huquqini berish bo'yicha malaka imtihonini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomning (ro'yxat raqami 3114, 2019-yil 4-yanvar) 7-bandiga asosan tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs Adliya vazirligiga quyidagi hujjatlarni elektron shaklda taqdim etadi:

- komissiya nomiga mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda ariza;
- mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq to'ldirilgan so'rovnoma;
- malaka imtihonini topshirganligi (qayta topshirganligi) haqida hududiy adliya organi huzuridagi malaka komissiyasining qarorida ko'chirma yoki belgilangan tartibda stajirovka o'taganligi haqida ma'lumotnoma.

Nizomning 72-bandiga muvofiq tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxsdan mazkur Nizomda nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Nizomning 9-bandiga ko'ra tanlov bo'yicha talabgorlar mazkur Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni Adliya vazirligiga elektron shaklda, ular qabul qilib olingani to'g'risida ma'lum qilgan holda taqdim etadi.

Elektron shaklda taqdim etilgan ariza va unga ilova qilinayotgan har bir hujjat haqiqiyliqi saqlanishini ta'minlovchi (har bir duymga 200 nuqtadan kam bo'lmagan) alohida fayl ko'rinishida bo'lishi kerak. Har bir fayl o'lchami 10 Mbdan oshmasligi lozim.

■ Hujjatlar "PDF" (portable document format) formatida skaner qilingan holda jo'natiladi.

■ Hujjatlar Adliya vazirligining r.abdigabbarov@adliya.uz elektron pochta manziliga yuborilishi lozim.

■ Hujjatlarni topshirishda yuzaga keladigan savollar uchun Adliya vazirligining (71) 207-04-51 (ichki raqam 1384) telefon raqamiga murojaat qilinishi mumkin.



## 8 ADLIYA FAXRIYLARI

*Yozuvchi Nikolay Ostrovskiyning "Po'lat qanday toblandi" romanidagi mashhur iqtibosni ko'pchiligimiz juda yaxshi bilamiz: "Insondagi eng qimmatli narsa bu – hayotdir. U insonga faqat bir marta beriladi. Uni shunday yashash kerakki, toki maqsadsiz o'tgan yillar uchun o'kinish va nadomatlar bo'lmasin..."*

# MAQSAD VA MA'NOGA YO'G'RILGAN umr yo'llari

Darhaqiqat, inson uchun eng katta mukofot bu – hayot. U inson zimmasiga yashash, yaratish, o'zidan yaxshi nom qoldirish, ko'zlagan maqsadlarga erishish kabi ulkan vazifalar bilan bir qatorda, Vatanga munosib, vijdonli, sadoqatli, adolatli bo'lish kabi burchlarni ham yuklaydi. Inson ana shu maqsad yo'lida toblanadi, turli imtihonlardan, yuksak dovonlardan o'tadi, o'zligini anglaydi. Umr solnomasini varaqlab, ortga nazar solganida, afsuslanmasligini asosiy mezoniga aylantiradi. Hayotning mazmunini boshqalarga xizmat va yaxshilik qilishda deb biladi.

Bugungi qahramonlarimizning bosib o'tgan izlarida ham xalqqa xizmat bolidagi halol mehnat chizgilari mujassam. Tajribali huquqshunoslarning sohada qo'lga kiritgan yutuqlari, ibratli hayot yo'li ehtiromga munosib.



## ODDIY CHILANGARDAN OLIV SUD HAY'ATI RAISIGACHA...

Ulug'bek Nabiyev qadim Buxoro farzandi. 1949-yilda G'ijduvon tumani-da tavallud topgan. Ammo mehnat faoliyati, hayotining barcha chorralari azim Toshkent bilan tutashgan. Toshkent trikotaj firmasining chilangari sifatida mehnat faoliyatini boshlagan o'smir yigit mehnatda toblandi, hayotning og'ir-engilini ko'rди, taqdirini huquqshunoslik sohasi bilan bog'ladi, shu mashaqqatli sohada chiniqdi, ildiz otdi. 1979-yilda Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetida tahsil oldi. Toshkent viloyat

ijroiya qo'mitasining chet ellar bilan aloqa bo'yicha referenti, keyinchalik Angren shahar davlat notarial idorasining notariusi, Toshkent viloyat adliya boshqarmasining katta maslahatchisi, Chirchiq shahar sudi sudyasi, Toshkent shahar sudi a'zosi, Toshkent shahar sudi raisi o'rinbosari, Oliy sud a'zosi, jinoyat ishlari bo'yicha hay'at raisi, Chirchiq shahar sudi raisidek mas'ul vazifalarda samarali mehnat qildi.

Ulug'bek Ibragimovich 1998-yildan 2007-yilgacha Adliya vazirligi Xalq xo'jaligida huquqiy ishlar boshqarmasining katta maslahatchisi, vazirlikning Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasining bo'lim boshlig'i lavozimida faoliyat ko'rsatdi.

Mamlakatimiz huquq tartibot idoralariidagi mehnat faoliyati davomida qonun ustuvorligini ta'minlashga munosib hissa qo'shdi. Qonunchilikdagi yangiliklarni hayotga tadbiiq etish, aholining huquqiy bilimi va madaniyatini oshirishga bor bilim va tajribasini ayamasdan xizmat qildi.

Umr oqar daryo. O'tgan yillar ortga qaytmaydi. Ammo o'tgan yillarning qadri-qimmati amalga oshirilgan ezgu ishlar, yaxshiliklar tarozusi bilan o'lchanadi, hayot atalmish kitobning sahifalari boshqalarga ibrat, namunasi bilan baholanadi, qadrlanadi. 75 yillik umri davomida kasbiga sadoqat, shogirdlariga ibrat, yaqinlariga mehr-oqibat tuyg'ulariga sodiq qolgan Ulug'bek Ibragimovichga qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin, deymiz.



## HUQUQSHUNOSLAR OILASI

Dunyoda kasblar ko'p, har birining o'z mashaqqati, o'ziga ohanrabodek tortuvchi jozibasi bor. Eng muhim mezon esa, o'z kasbidan saodat topish, taqdiridan minnatdor bo'lish. Ana shunday baxtli insonlar safidan joy olgan Rashida Soliyeva sud va adliya sohasida qariyb 40 yil samarali faoliyat yuritgan tajribali huquqshunos. Faxriy huquqshunosning hayot yo'li, jamiyatda adolat barqarorligi, qonun ustuvorligini ta'minlash borasidagi fidokorona mehnatlari tizimda ishlab kelayotgan shogirdlari, hamkasblariga katta maktabdir.

Darhaqiqat, huquqshunos sifatida mas'uliyatli sohalarda mehnat qilish, bu yo'lida boy hayotiy tajriba orttirish, ayniqsa, ayol uchun hammaga ham nasib etavermaydigan martaba. 1972-yilda Sirdaryo tuman xalq sudida kotiba sifatida o'z mehnat faoliyatini boshlagan Rashida Soliyeva Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasida kadrlar bo'yicha muxassis, Guliston shahar 1-sonli davlat notarial idorasida katta notarius vazifasida ishladi. 1992-1994-yillarda Sirdaryo viloyat 2-sonli Nikoh uyi mudiri, 1994-yildan qator yillar mobaynida Xovos tumani hamda Guliston va Yangiyer shaharlarida FHDY bo'limi mudiri lavozimlarida samarali mehnat qildi. Hamisha odamlar orasida, ular bilan hamnafas bo'ldi.

Bugungi kunda Rashida opaning

ko'plab shogirdlari adliya idoralariida mas'ul lavozimlarda xizmat qilmoqda. Albatta, ular erishayotgan yutuqlarda shubhasiz ustoz sifatida Rashida Soliyevaning ham hissasi bor. Shogirdlar ustozdan minnatdor. Huquqiy maslahat bahonasida diyorlashish g'animatligini ustoz ham, shogirdlar ham yaxshi bilishadi. Qizg'in suhbatlarda, albatta, xotiralar jonlanadi, o'tgan davrlar, bosib o'tilgan umr yo'llari esga olinadi, hayotiy tajribalar o'rtoqlashiladi.

Yangiyerliklar Soliyevlar oilasini yuristlar oilasi sifatida alohida hurmat qiladi. Rashida opaning turmush o'rtog'i Muzaffar aka Soliyev ham huquqshunos. Uch farzandi – Nafosat, Aziza va Mirzoulug'beklar ham ota-onasi izidan borib, huquq sohasini tanladi, adliya tizimida mehnat qilmoqda.

Qonuniylik, adolat, samimiylilik. Bu tamoyillar Rashida opaning hayotdagi shiori. Shu bois ustoz huquqshunos 40 yillik mehnat faoliyati davomida ijobiy natijalarga erishdi, hamkasblari orasida hurmat-e'tibor qozondi. Rashida Rashidovna ushbu hayotiy haqiqatni shogirdlari va farzandlariga ham bot-bot uqitiradi. Zotan, adolat va qonuniylikni ta'minlash huquqshunosning burchi, inson qadr-qimmatini ulug'lashning eng muhim shartidir. Qadringiz hamisha baland bo'lsin. Tabarruk yoshingiz bilan qutlaymiz, Rashida opa!

**Dilnoz UMURZOQOVA,**  
Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi,  
**Marusa HOSILOVA,**  
"Inson va qonun" muxbiri

Adliya vazirligi Faxriylar kengashi jamoasi adliya faxriysi  
**Lyubov BREDNEVA**ning  
vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolariga chuqur ta'ziya  
izhor qiladi.

INSON  
va qonun

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot  
markazi nashri  
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0081-raqam bilan  
ro'yxatga olingan



### TAHRIR HAY'ATI

Bosh  
muharrir  
Asiddin  
ALIMARDON

Alisher Karimov  
Furqat Tojiyev  
Akbar Musayev  
Xayotjon Klichev  
Sevara O'rinboeva  
Yorbeq Iskandarov  
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar laqirz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

Navbatchi  
Xurshid Sultonov  
Sahifalovchi-dizayner  
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"  
ilimiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-  
zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida. 2 bosma taboq  
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida  
chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,  
17-mayye, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy  
Tiraj – 4125  
Buyurtma – 548  
Topshirish vaqti – 19:00  
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5